

O'ZBEKISTONDA INOVATION FAOLIYATNI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY XUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISHI

G'ayrataliyev Javohir Mirzohid o'g'li

NamDU IQT-BU-25 talabasi javosh78gayrat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda innovasion faoliyatni tashkil etishning me'yoriy xuquqiy asoslari va rivojlanishi hamda xalqaro standartlarga mos ravishda amalga oshirilishi masalalari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Sanoat, ishlab chiqarish, innovatsion faoliyat, korxonalar, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy sharoitlarida sanoat korxonalari uchun innovatsiyaviy va texnologik taraqqiyotga erishish o'ta muhimdir, chunki faqat shu yo'l orqali sanoat korxonalarida innovasion faollikni oshirish, zamonaviy texnologik bazani yaratish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, samaradorlik va mehnat unumdorligini oshirish, shuningdek ularning xalqaro hamda mahalliy raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkin bo'ladi. Shuning uchun O'zbekiston sanoat korxonalarini boshqarishning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, innovasion faoliyatni kerakli sifat va miqdor darajasiga erishtirishdan iboratdir.

Xususan, O'zbekistonda qabul qilingan ko'plab nomativ-huquqiy hujjatlar va ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga qo'yilgan qonun loyihalarida o'z aksini topgan. Innovasion faoliyat to'g'risida 2020 yil 24 iyuldagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida"gi prezident farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida» 2020 yil 26 martdagi PF-5975- son Farmoni , «O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2020 yil 26 martdagi PQ-4653-son, «Aholini tadbirkorlikka jalb qilish tizimini takomillashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2020 yil 13 oktyabrdagi PQ-4862-son qarorlari, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish to'g'risida " 2021 yil 17 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori kabi myoriy hujjatlar shular jumlasidandir.

Ushbu hujjatlarni qabul qilishdan maqsad tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, yangi tadbirkorlarni vujudga keltirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar

yaratish, innovasion tizimning salohiyati va samaradorligini oshirishga ko'maklashish, innovatsiyalar uchun qulay bo'lgan nomativ huquqiy, moliyaviy va axborot muhitini yaratishdan iborat. Shuningdek, sanoatda raqobatbardoshlik va mahsuldorlikni oshirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarishni ko'paytirish va ishlab chiqarish va eksport tarkibida ulushni oshirish, innovasion texnologiyalar va ilg'or boshqaruvni qo'llashni kengaytirishdir.

Innovasion faoliyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- innovasion rivojlantirishning huquqiy jihatdan tartibga solinishini ta'minlash;
- ustuvor yo'nalishlarni belgilash;
- zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish;
- innovasion faoliyat sub'yektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- respublika, tarmoq va hududiy davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- investisiyalarni jalb etishga ko'maklashish;
- davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;
- xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Davlat innovasion faoliyatni qo'llab-quvvatlashni quyidagi yo'llar bilan amalga oshiradi:

- innovasion rivojlantirish strategiyalarini qabul qilish va amalga oshirish;
- nomativ-huquqiy bazani takomillashtirish;
- innovasion faoliyat sub'yektlariga soliq, bojxona imtiyozlari va preferensiyalar berish;
- respublika Davlat byudjeti mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan innovatsiyalarni yaratishga oid davlat buyurtmasini bajarish;
- innovasion faoliyatni moliyalashtirishga xo'jalik yurituvchi sub'yektlar mablag'larini jalb qilish uchun shart-sharoit yaratish;
- ilm-fan yutuqlariga asoslangan mahsulotning va ilg'or texnologiyalarning davlat haridlarini tashkil etish;
- innovasion faoliyat sohasida kadrlarni tayyorlashga, qayta tayyorlashga va ularning malakasini oshirishga ko'maklashish.

Innovasion rivojlanish vazirligi innovasion faoliyat sohasidagi vakolatli davlat organidir.

Qonunda «innovatsiya», «innovasion faoliyat», «innovasion loyiha», «innovasion infratuzilma», «texnologiyalar transferi» singari tushunchalarga ta'rif berilgan.

Innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyotda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni

ta'minlaydigan yangi ishlanma. Qonunda mahsulotga, jarayonga, marketingga oid, tashkiliy innovatsiya turlari ajratib ko'rsatilgan.

Innovation faoliyat – yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyat.

Innovation loyiha – yangi ishlanmalar yaratish uchun bajarish muddatlarini, ijrochilarni, moliyalashtirish manbalarini va tegishli infratuzilmani shakllantirishni nazarda tutuvchi tadbirlar majmui.

Innovation faoliyat sub'yektlari quyidagilardan iborat:

- innovation faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar;
- innovation faoliyat sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari va boshqa tashkilotlar;
- yangi ishlanmalarni yaratadigan, joriy etadigan va innovatsiyalardan foydalanadigan ilmiy, ilmiy-tadqiqot, oliy ta'lim, ishlab chiqarish tashkilotlari va boshqa tashkilotlar;
- innovatsiyalar ishlab chiqaruvchilar va foydalanuvchilar manfaatlarini ifodalovchi va himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotlari;
- innovation faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan va foydalaniladigan intellektual mulk ob'yektlariga bo'lgan huquq egalari;
- innovation faoliyatga investisiya qilishni amalga oshiruvchi investorlar va tadbirkorlik sub'yektlari.

Qonun bilan texnologiyalar transferi jarayoni – yangi ishlanmani u olinadigan (ishlab chiqariladigan) sohadan amalda qo'llash sohasiga o'tkazishga qaratilgan tadbirlar majmui ham joriy etilmoqda. Uning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mavjud texnologiyalardan foydalangan holda ishlab chiqariladigan o'xshash mahsulotga nisbatan yuqori sifatli va raqobatbardosh yangi yoki yaxshilangan mahsulot ishlab chiqarish;
- yangi ishlanmalar va texnologiyalar asosida mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarish;
- o'xshash texnologiyalarga nisbatan energiyani va resurslarni tejovchi texnologiyalarni joriy etish.

Texnologiyalar transferi shartnoma asosida amalga oshiriladi, intellektual mulkka bo'lgan huquq mavjudligi va undan tushgan foyda uni tuzishning asosiy sharti hisoblanadi.

Innovation faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va ular birlashmalarining majmui innovation infratuzilma hisoblanadi. Uning sub'yektlariga quyidagilar kiradi:

1. Innovation texnologik park (texnopark) – innovation faoliyatni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladigan yagona moddiy-texnika majmuasi bo'lgan hududga egalik qiluvchi yuridik shaxs. Texnoparkning asosiy vazifasi – uning

rezidentlarini qo'llab-quvvatlash. Uning faoliyat ko'rsatish muddati 30 yilgachani tashkil etadi, keyinchalik bu muddat uzaytirilishi mumkin. Texnopark rezidentining maqomi tanlov asosida 10 yil muddatgacha beriladi;

2. Texnologiyalar transferi markazi – texnologiyalar transferini va innovasion ishlanmalarni tijoratlashtirishni ta'minlash maqsadida tashkil etilgan yuridik shaxs;

3. Innovasion klaster tegishli hududda innovatsiyalarni yaratishda ishtirok etuvchi innovasion faoliyat sub'yektlarining, innovasion faoliyat natijalari iste'molchilarining yig'indisi sifatida yuridik shaxs tashkil etmasdan tuziladi. Ularning asosiy maqsadi samarali hamkorlik qilishdan, quvvatlardan birgalikda foydalanishdan hamda bilimlar, ko'nikmalar almashishdan, shuningdek texnologiyalar transferiga ulushni ta'minlash orqali innovasion faoliyatni rag'batlantirishdan iborat bo'ladi;

4. Venchur tashkilotlar, fondlar, shirkatlar – asosiy faoliyat turi xavfli innovasion loyihalar amalga oshirilishini moliyalashtirishdan iborat bo'lgan, ham yuridik shaxs shaklida tashkil etiladigan, ham yuridik shaxs sifatida tashkil etilmaydigan ixtisoslashtirilgan moliya institutlari.

5. Innovatsiya markazi innovasion faoliyat sohasida yangi g'oyalarni yaratishdan yangi ishlanmalarni tijoratlashtirishgacha bo'lgan to'liq ishlar turkumini amalga oshirish maqsadida yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi.

Qonun bilan innovasion faoliyatni moliyalashtirish manbalari va ularni sarflash yo'nalishlari ham belgilangan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston respublika byudjeti;

Qoraqalpog'iston respublika byudjeti hamda viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari;

Innovasion rivojlanishni va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi;

innovasion faoliyatni qo'llab-quvvatlash jamg'armalari;

venchur jamg'armalari;

innovasion faoliyat sub'yektlarining o'z mablag'lari;

xalqaro grantlar, tijorat banklarining, shu jumladan chet el banklarining va xalqaro moliya institutlarining maqsadli kreditlari;

xususiy investorlarning mablag'lari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Innovatsiyalar raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatini beradi. So'nggi yillarda buni nafaqat iqtisodchilar, balki siyosatchilar ham tushunishmoqda. Asosiy maqsadlarga erishish uchun yalpi ichki mahsulotning 3 foizini ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirish, bandlik darajasini 70 foizga yetkazish, byurokrtiyani qisqartirish, korrupsiyani yo'qotish va tadbirkorlikni rag'batlantirishni amalga oshirish kerak. Bu muammolar hal etilsa, mamlakatimizda iqtisodiyotimiz innovasion jihatdan rivojlanishda katta muvaffaqiyatlarga erishadi. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalar uchun davlat byudjetlaridan mablag' ajratish va uni ta'minlash hajmini oshirish nazarda tutilgan. Xususan, uchta asosiy yo'nalish ustuvorlik kasb etadi:

ta'limga va intellektual mulkni shakllantirish va ko'paytirishga sarmoya kiritish;
sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida raqobatbardoshlikni kuchaytirish;
mehnat bozorida monomarkazlar tashkil etish .

Ko'rinib turibdiki, yuqorida aytib o'tilgan barcha holatlarda raqobatbardoshlikni oshirish innovatsiyalar bilan bog'liq. Mamlakatlar va alohida korxonalar o'rtasida samarali bilim almashinuvi uchun tadqiqot o'tkazish hamda bilimlarni kengaytirish uchun muvofiqlashtirilgan va umumiy makonni yaratish zarurat hisoblanadi. Gap nafaqat texnologiyalarni tadqiq etish va ishlab chiqarishni, intellektual mulk huquqlarini himoya qilishni qo'llab-quvvatlash, balki innovatsiyalarning tarqalishi va tarqalishini ta'minlash haqida ketmoqda, chunki innovatsiyalar joriy etilgan joyda samara kutilgandek bo'ladi.

O'zbekiston sanoatida innovatsiyalardan foydalanish borasida yangi tendentsiya shakllandi. Bunga qadar, arzon ishchi kuchidan foydalangan holda tabiiy resurslarni qayta ishlash bilan bog'liq tarmoqlar ustunlik qilgan. Biroq, bugungi kunda O'zbekiston tabiiy resurslaridan foydalanishga tubdan yangicha yondashuvni maqsad qilgan. Buning yorqin namunasi yangi UzGTL zavodi tabiiy gazni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganidir. Bu kabi yirik loyihalar tufayli O'zbekiston bosqichma-bosqich tabiiy gaz xom ashyosi eksportidan voz kechib, neft mahsulotlari importini kamaytirmoqda. Bu esa, energetik mustaqilligimizni mustahkamlashga salmoqli hissa qo'shilayotganidan dalolat beradi. Nafaqat O'zbekiston, balki MDH mamlakatlari ichida eng yirik investisiya loyihalaridan biri hisoblanadigan mazkur UzGTL majmuasi ham innovasion ishlab chiqarish namunasidir. Shuningdek, MDH hududidagi eng zamonaviy va innovatsiyalardan biri bu – korxonaning markaziy boshqaruv pulti va zavod markaziy laboratoriyasidir. Yangi korxona GTL, ya'ni "gazni – suyuqlikka" texnologiyasi asosida yiliga 3,6 milliard metr kub tabiiy gazni qayta ishlab, 1,5 million tonna tayyor mahsulotlar – aviakerosin, dizel yoqilg'isi, nafta, suyultirilgan gaz ishlab chiqarish quvvatiga ega. Bunday zavod shu paytgacha jahonda faqat 4 ta davlatda – Qatar, Nigeriya, JAR va Malayziyada barpo etilgan. Bu yerda yiliga umumiy qiymati 1 milliard AQSH dollari yoki 12,8 trillion so'mdan ortiq import o'rnini bosuvchi neft mahsulotlari va uglevodorod xom ashyolari ishlab chiqariladi. GTL texnologiyasi asosida tabiiy gazdan qo'shilgan qiymatli mahsulotlar olish uch bosqichda amalga oshiriladi. Ushbu texnologiya asosida tayyorlangan zamonaviy yonilg'i turlari ekologik jihatdan sifatli va toza. Bu esa, o'z navbatida, bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan tabiatga zarar yetkazmaslik tamoyiliga ham mos tushadi. Masalan, GTL dizel yonilg'isini olaylik. Yuqori texnik tavsifga ega va tarkibida oltingugurt miqdori deyarli bo'lmagan GTL dizelidan atmosferaga aytarli chiqit chiqmaydi. Xuddi shuningdek, GTL kerosini aviakompaniyalarga atmosferaga chiqariladigan zararlarni kamaytirishning xavfsiz va daromadli usulini taklif etadi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan ortiqcha bug' hisobiga avtonom tarzda elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Ya'ni, "Uzbekistan GTL" zavodini elektr energiyasi bilan ta'minlash masalasi ham innovasion tarzda hal qilindi. Shunday

qilib, korxona nafaqat o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan elektr energiyasini mustaqil ravishda ishlab chiqaradi, balki zarur hollarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining qo'shimcha hajmini milliy elektr tarmoqlariga ham yetkazib beradi. Bundan tashqari, innovasion texnologiyalar asosida qayta ishlangan gazdan zamonaviy yuqori sifatli UzGTL mahsulotlari ishlab chiqariladi. Shu bilan birga, UzGTL zavodida ishlab chiqarilgan nafta polimer mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun "Sho'rtan gaz kimyo majmuasi"ning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish obektlariga qayta ishlash uchun yuboriladi va shu orqali yagona neft-gaz-kimyo klasteri yaratiladi. Qayd etish lozimki, UzGTL sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarish loyihasi yaratilishida Sasol (Janubiy Afrika), Haldor Topsøye (Daniya), Chevron (AQSH) va Honeywell kabi yetakchi kompaniyalarning ilg'or texnologik yechimlaridan foydalanildi.

Yuqori xalqaro standartlarga javob beradigan UzGTL mahsulotlari birinchi navbatda respublikaning neft mahsulotlariga, xususan, dizel yoqilg'isi va kerosinga, shuningdek, suyultirilgan gazga bo'lgan ichki ehtiyojini qoplash uchun yetkazib beriladi. Qolaversa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar yuqori sifatli bo'lgani uchun eksport qilish imkoniyati ham mavjud bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, UzGTL zavodi O'zbekistonda uglevodorod xom ashyosini chuqur qayta ishlash sohasida amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarning namunasi va mamlakatimiz neft-kimyo sanoatining rivojlanish sur'atlarining bir ko'rsatkichi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida" Qonuni. -T., 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni
3. Vaxabov A.V., Xajibakiev SH.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma / prof. A.V.Vaxabovning umumiy tahriri ostida. - T.: "Moliya", 2010. 328 b.
4. Gozibekov D.G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.: "Moliya", 2003. - 332 b.
5. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(10).
6. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).
7. Xolmirzayev, U. B. (2024). Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(6).
8. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVATION FAOLIYATNING MOLIYAVIY TA'MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 142-146.

9. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. Journal of new century innovations, 74(2), 65-70.
10. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. Ilmiy monografiya. Toshkent–2023.
11. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 42(1), 197-206.
12. Xolmirzayev, U. B., & Xakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEKANIZMI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 96-98.
13. Xakimov, B. J., Alimov, B. B., Xolmirzayev, U. A., & Polatov, A. X. (2013). Iqtisodiy tahlil nazariyasi. T: "Iqtisod-Moliya"–2013.
14. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 767-779.
15. Холмирзаев, У. А., & Самижонов, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 755-766.
16. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
17. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(11), 38-47.
18. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Questions of Economics and Management, 5(7), 6.
19. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 8(4), 419-423.
20. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 203-209.
21. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
22. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA INNOVATION FAOLIYAT YO 'NALISHLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(5), 17-21.

23. Xolmirzayev, U. A., & Hakimova, G. A. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. Экономика и социум, (5-1 (120)), 938-941.
24. Xapizovich, X. A. (2023). Directions of Poverty Reduction Based on the Development of Small Business and Private Entrepreneurship in Uzbekistan. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(12), 632-636.
25. Kholmirzaev, A. K. (2021). Criteria and directions of development of small business activities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 730-735.
26. Kholmirzaev, A. (2020). Ways of small business development. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 162-167.
27. Boxodir o'g'li, I. A. (2023). ACCOUNTING AND ANALYSIS OF COSTS AS A BASIS OF BUDGETING. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(04), 9-12.
28. Boxodir o'g'li, I. A. (2025). Organization of Accounting for Expenses and Income in Small Businesses. Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance, 6(3), 1053-1059.
29. ИСОМУХАМЕДОВ, А. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 492-497.
30. Hakimova, D. (2025). INNOVATSIYA VA INNOVATSION SALOHİYATNING PEDAGOGIK AĦAMIYATI. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 204-208.